

**“BOLALARNING TIL QOBILIYATINI ONTOLINGVISTIK
NUQTAYI NAZARDAN RIVOJLANTIRISH METODIKASI”**

**“THE METHODOLOGY OF DEVELOPING CHILDREN'S LANGUAGE
ABILITY FROM AN ONTOLINGUISTIC PERSPECTIVE”**

Komilova Dilnozaxon Abdulxayevna

*Andijon davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim kafedrası v.b.dotsenti
Pedagogika fanlari doktori (PhD)*

Komilova Dilnozakhon Abdulkhayevna

*Andijan State Pedagogical Institute
Acting Associate Professor, Department of Primary Education
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalarda ontolingvistik qobiliyatlarni shakllantirish va ularni muntazam ravishda rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan. Shuningdek, bolalarning tengdoshlari hamda kattalar bilan o'zaro muloqot jarayonida faol ishtirok etish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ularni mustaqil hayotga tayyorlash masalalari tahlil qilinadi. Pirovard natijada bolalarda muloqot madaniyati va muloqotchanlik qobiliyatini takomillashtirish yo'llari haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ontolingvistik qobiliyat, erkin ishtirok, kasbiy ko'nikmalar, o'zaro munosabat, faoliyat, samara, til, nutq, noverbal vositalar, verbal vositalar, muloqot.

Аннотация. В статье описаны условия формирования и регулярного совершенствования онтолингвистических навыков детей, подготовки их к самостоятельной жизни путем совершенствования способности детей свободно участвовать во взаимодействиях со сверстниками и взрослыми и, наконец, в общении.

Ключевые слова: онтолингвистические способности, свободное участие, профессиональные навыки, взаимодействие, активность, исполнительность, язык, речь, невербальные средства, вербальные средства, общение.

Annotation. The article provides information about the conditions for systematically and systematically improving ontolinguistic work in children, increasing children's ability to freely participate in interactions with peers and adults, and ultimately developing communication skills.

Key words: ontolinguistic ability, free participation, professional skills, interaction, activity, effectiveness, language, speech, nonverbal means, verbal means, communication.

Hozirgi globallashuv va axborot texnologiyalari tez rivojlanayotgan davrda, bolalar nutqi ham tez o'zgaruvchan jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. XXI asrning asosiy belgilaridan biri — raqamli texnologiyalar, ko'p tillilik va axborot oqimining yuqori sur'ati bo'lib, bu holat bolalarning nutqiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ontolingvistika — bolaning nutqiy rivojlanishini o'rganadigan fan sifatida, zamonaviy sharoitda yangi ilmiy yondashuvlar va tadqiqotlarni talab etmoqda. Shu bois, ushbu maqolada global transformatsiya sharoitida bolalar nutqining rivojlanish jarayoni, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi.

Ontolingvistika — bolaning nutqiy rivojlanishini individual rivojlanish (ontogenez) jarayonida o'rganadigan fan bo'lib, transformatsiya davri unda alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur davrda bolaning nutqiy qobiliyatlari jadal rivojlanadi, lug'at boyligi kengayadi, grammatik tizim shakllana boshlaydi. Shu bilan birga, tez o'zgaruvchan muhit ta'sirida turli nutqiy muammolar va kommunikativ to'siqlar ham vujudga kelishi mumkin. Til va nutqning eng muhim vazifasi — insonlar o'rtasidagi muloqotni ta'minlashdir. Til orqali bola nafaqat fikrini ifodalaydi, balki atrof-muhitni anglaydi, dunyoqarashini kengaytiradi. Muloqot jarayonida fikrlar erkin ifoda etilib, umumiy g'oya va tushunchalar shakllanadi. Bolalarda olam va uning tuzilishi haqidagi tasavvurlar dastlab murg'ak va cheklangan bo'ladi. Agar bu jarayon o'z vaqtida rivojlantirilmasa, bola dunyoqarashi tor va bir yoqlama bo'lib qolishi mumkin. Shuning uchun til va nutq yordamida muloqotni rivojlantirishda bolalar bilan yakka tartibda suhbatlar o'tkazish, ularni o'z fikrini erkin ifodalashga rag'batlantirish muhimdir. Bunday yondashuv natijasida bolalarda kommunikativ kompetensiya shakllanadi, ular mustaqil fikrlash, o'z nuqtai nazarini asoslash va muloqot madaniyatiga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Ma'lumki, o'quvchilarning nutqining boy, ravon, shu bilan birga, adabiy til me'yorlariga muvofiq bo'lishi ularning maktab ta'limi yoshida olgan bilimlariga asoslanishi o'z isbotini topgan haqiqatdir. Mazkur yoshda bola jismoniy, ruhiy, ma'naviy, shu bilan birga nutqiy bilimga ehtiyoj sezadi. Bola nutqdan o'z fikri, his-tuyg'ularini ifodalashga rag'bat ko'rsatadi, qiziqadi, undan atrof-dagi insonlarga ta'sir qilish uchun faol foydalanadi. Bola tashqi dunyoni ruhiy jarayonlar yordamida, shuningdek, nutq yordamida bilib olish imkoniyatini doim sezib turadi. Bu o'rinda buyuk adib Abdurauf Fitratning quyidagi fikrini eslab o'tish joiz: "Suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi bolalar ham qaysi muhitda bo'lsalar, o'sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar". [8, 68; 208]

Bolalarda bunday nutqiy vaziyatlarni shakllantirish va rivojlantirishda, albatta, pedagog va ota-onalarning o'rni nihoyatda katta. Biroq, amaliyotdagi kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, bolalarda ontolingvistik qobiliyatlarni shakllantirish kattalar va pedagoglar nazaridan chetda qolmoqda. Aksariyat bolalar

o‘zaro bir-birlarini tushunmaydi, tinglashni ham istamaydi, ularda jahldorlik alomatlari seziladi va o‘zaro kelisha olmasliklaridan ular orasida kichik nizolar kelib chiqishi kuzatilmoqda. Yuzaga kelgan ushbu holatlar nafaqat bolalar o‘rtasidagi o‘zaro muloqotlarga to‘siq bo‘ladi, balki ta’limiy-tarbiyaviy jarayonlarga ham salbiy ta’sir ko‘rastishi aniq.

Bugun mamlakatimizda ta’lim-tarbiya, jumladan, maktab ta’limi sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonlarida ularning tengdoshlari va atrofdagilar bilan muloqotga kirishishida bir qator muammolarga duch kelinmoqda. Ayni paytda, boshlang‘ich maktabga o‘qitishga o‘tish bola psixikasi uchun juda qiyin sinov hisoblanadi. [6,207]

Masalani o‘rganish va kuzatishlarimiz natijasida quyidagi muammolar aniqlandi:

- boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bolalarda lug‘at boyligining maktabda o‘qitiladigan umumta’lim fanlarini egallashi uchun yetarli emasligi;

- bolalarning o‘z fikrini erkin ifodalashi, nutqiy muhitga mos so‘zlashish ko‘nikmalarini rivojlantirishiga oid didaktik ta’minotning talab darajasiga javob bermasligi;

- ota-onalarning o‘z farzandini maktab ta’limiga nutqiy jihatdan tayyor bo‘lishining mezonlari va talablaridan yetarlicha xabar topmaganliklari;

- bolalarning muloqot jarayonida o‘z fikri, hissiyotlari va taassurotlarini namoyon eta olmayotganligi;

- bolalarning iltimos yoki ma’lumotlarni o‘z tengdoshlariga tugal aytolmasligi, tanish insonlari bilan muloqotga dadil kirisha olmasligi;

- bolalarda kompetensiyaviy ko‘nikmalarni maqsadli shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv va didaktik topshiriqlarning tizimlashtirilmaganligi;

- bolalarda nutqning dialogik shaklini yetarli darajada shakllanmaganligi hamda kommunikativlikni rivojlantirishga mo‘ljallangan metodik manbalarning yetishmasligi;

- bolalar rivojlanishi uchun ijtimoiy-hissiy, nutqiy, muloqot, o‘qish va yozish malakalariga qo‘yiladigan davlat talablarini ular tomonidan samarali egallanishini ta’minlovchi didaktik tizimning ishlab chiqilmaganligi;

- bolalarda ontolingvistik qobiliyatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalar aniqlanib, amaliyotga joriy etilmaganligi.

Ontolingvistik qobiliyatlar bolalar xarakterining shakllanishida asosiy omillardan biri sifatida qaraladi hamda ularni ijtimoiy va intellektual jihatdan rivojlantirishda muhim vosita sifatida talqin etish mumkin. Boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bolalarda ontolingvistik qobiliyatlarni shakllantirish jarayoni ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Mazkur jarayonni samarali amalga oshirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali bolalarning maktab ta’limiga moslashuvi yanada oson va tabiiy kechadi.

Inson bolasining ijtimoiy hayotga moslashuvi murakkab va asta-sekinlik bilan kechadigan jarayondir. Uning jamiyatdagi o‘rni, avvalo, nutqiy faolligi va fikrni ifoda etish qobiliyati bilan belgilanadi. Chunki nutq — bu amaliy ongning

ifodasidir. Shunday ekan, bolada ontolingvistik qobiliyatlarni shakllantirish va ularni muntazam takomillashtirib borishning eng muhim sharti — bola ongini har tomonlama oʻstirish, uni faol muloqot muhiti bilan oʻrab olishdir.

Agar bolaning ijtimoiy koʻnikmalari yetarlicha shakllanmagan boʻlsa, u tengdoshlari va kattalar bilan muloqotda erkin ishtirok eta olmaydi, natijada uning ijtimoiy jarayonlarda faol qatnashish imkoniyatlari cheklanadi.

Shu bois, ushbu maqolada ilgari surilgan asosiy gʻoya — bolalarda ontolingvistik qobiliyatlarni shakllantirish orqali ularni maktab taʼlimiga va mustaqil hayotga tayyorlash, pirovard natijada esa muloqotchanlikni rivojlantirish asosida ularni jamiyatga muvaffaqiyatli moslashtirish masalasidir.

Alohida taʼkidlash lozimki, bolalarga ontolingvistik qobiliyatlarni shakllantirishda muloqotning verbal va noverbal vositalaridan oʻrinli foydalanishni oʻrgatish lozim. Shundagina ular muloqot vaqtida vaziyatga qarab savol va javob berishga odalanadilar, suhbatdoshlariga oʻz fikrlarini bildirishadi, iltimos, maslahat va takliflarini ayta oladi. Bundan tashqari, pedagoglar bolalarni nutqiy madaniyat qoidalariga rioya qilgan holda suhbatlashishga oʻrgatishi maqsadga muvofiq. Bolalarda verbal rivojlanish asosida nutqning kommunikativ vazifasi amalga oshadi. Ushbu vazifaning oʻz vaqtida bajarilishi bolaning ongi va tafakkuriga bogʻliq. Nutq jarayonlarida bolalarda erkin soʻzlash, turli nutq shakllaridan foydalanish, maslahat, maʼlumotlar bera olish koʻnikmalari paydo boʻlsa, bu ularda kommunikativ kompetensiya shakllanganidan dalolat beradi. Shuningdek, bolalar oʻzlarida kommunikativ kompetensiya shakllantirishi uchun til vositalarini oʻzlashtirish, oʻz fikrlarini nutq vositalari yordamida bayon etish, maʼlumotlarni uzatishda mantiqiy fikrlay olishlari zarur. Bolalarda kommunikativ faoliyatni amalga oshirishning omillaridan birini til vositalaridan foydalanish ehtiyoji tashkil etadi. Ontolingvistik qobiliyatlarni shakllantirishda muhim oʻrin tutuvchi mantiqiy fikrlash katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mantiqiy fikrlash bolalardagi oʻquv-bilish faolligini rivojlantirishda ham muhim oʻrin egallaydi. Bolalar nutqining meʼyorda rivojlanishi kommunikativ xulq-avtorga bevosita bogʻliq. Kattalar bolalarga murojaat qilganlarida ularga kerakli yoʻl-yoʻriq koʻrsatishga intiladilar, harakatlarni toʻgʻri bajarish haqida tushuncha beradilar, suhbat vaqtida savollarga vaqt ajratib, bolalar nutqini nazoratga oladilar.

Bugungi raqamli asrda gadjetlarga haddan tashqari qaramlik ham bolalarning tabiiy muloqot tajribasini kamaytirmoqda. Doʻstlar va ota-onalar bilan jonli muloqotning kamayishi natijasida nutqiy rivojlanish sekinlashadi, lugʻat boyligi kengaymaydi, mantiqiy fikrni ogʻzaki ifodalash qobiliyati pasayadi. Shunday holatda bola qisqa jumlar va tayyor iboralar bilan cheklanadi, natijada nutqning tabiiy ravonligi va ifodaviyligi shakllanmay qoladi. Zero, boshlangʻich taʼlimning samaradorligi — bu 7–9 yoshli bolalarning maktab taʼlimiga har tomonlama tayyorgarligi, mustaqil hayotda oʻz oʻrnini topa olishi hamda shaxs sifatida shakllanish darajasi bilan belgilanadi.

Mamlakatimiz oʻz taraqqiyotining Uchinchi Renessansiga qadam qoʻyayotgan hozirgi davrda “Yangi Oʻzbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” [2,56] degan shiorning oʻrtaga tashlangani bejiz emas, albatta. Prezident Shavkat

Mirziyoyevning asarlarida ilgari surilgan ijtimoiy rivojlanishga oid fikr va mulohazalar barcha jabhadagi muvaffaqiyatlarimizning dasturulamali sanaladi. Jumladan, bolalar tomonidan jamiyatda qabul qilingan me'yor va talablarni o'zlashtirish, milliy-ma'naviy qadriyatlarni anglash, tengdoshlari, kattalar bilan bo'ladigan muloqotni rivojlantirish, muloqotda mustaqil bo'lish, o'z xatti-harakati va qarashlarini maqsadli yo'naltirish, ijtimoiy-hissiy intellektni rivojlantirish, tengdoshlari bilan hamkorlikdagi faoliyatga tayyor turish, kattalar va o'rtoqlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish kabi talablarni amalga oshirishda ham mazkur fikr va mulohazalar katta ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'lim davrida muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish juda muhimdir. Bu davrda bolalarning jamiyat hayotiga moslashishi, faol va ma'suliyatli ijtimoiy mavqega ega bo'lishi, o'zini anglay olishi, har qanday shaxs bilan doimo til topishishi va do'stlashishi uchun zarurdir, bu esa ko'p vaqt talab qiluvchi jarayon sanaladi, chunki bola rivojlanishi bilan birga uning his-tuyg'ulari, atrof-olamga munoasbati ham ham o'zgarib boradi.

Inson bolasining ijtimoiy hayotga ko'nikishi juda sekin amalga oshadigan jarayon sanaladi. Uning hayotdagi o'rni nutqi bilan belgilanadi. Nutq esa amaliy ong sanaladi. Demak, bolalarda ontolingvistik qobiliyatlarini shakllantirish va muntazam takomillashtirib borish shartlaridan biri bu – bola ongini har jihatdan o'stirishga borib taqaladi. Bu jarayondagi bosh mezon uni o'rab turgan muhim sanaladi. Ijtimoiy ko'nikmalari yetarlicha shakllanmagan bola tengdoshlari va kattalar bilan o'zaro munosabatlarda erkin ishtirok eta olmaydi va uning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda harakatlanish imkoniyatlari chegaralanib qoladi. Shu bois, mazkur kichkina tadqiqot ishimizda ilgari surilgan g'oya bu –bolalarda ontolingvistik qobiliyatlarini shakllantirish orqali ularni mustaqil hayotga tayyorlash, pirovard natijada muloqotchanlikni rivojlantirish vositasida ularni jamiyatga moslashtirishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyov Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 56 b.
3. Rahmatova Z.H. Maktabgacha yoshidagi bolalar nutqini o‘stirish vositalarini yaratishning lingvistik asoslari: Fil. fan. b. f. dok. (PhD) ... diss. – Qarshi, 2021. – 141 b.
4. Rashidova Z.O. Adaptatsiyasi sust kechadigan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagog shaxsining o‘rni//Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda ta’lim-tarbiya jarayonining dolzarb masalalari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – 2021-yil 10-iyun. – Toshkent:Tipograf, 2021. – 207-b.
5. Shodiyeva Q. Nutq o‘stirish uslubiyoti. Darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – 27-b.
6. Абдурауф Фитрат. Раҳбари нажот/Танланган асарлар. – 5-жилдлик. 5-жилд. Илмий рисоалар. – Тошкент: Маънавият, 2010. – 62-208 бетлар.
7. Бочарникова М. А. // Молодой ученый. 2009. – № 8. – С. 130-132.
8. Кидрон А.А. Коммуникативная способность и их совершенствование: Дисс. канд. псих. наука – М., 1981. – 160 с.